

NOTIQLIK SAN'ATI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHА

Xurazova Buvsalima Asadulla qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti 4 bosqich talabasi

E-mail: saliasli2023@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yoshlarning og'zaki nutqini shakllantirish, so'z boyligini oshirish hamda omma oldida so'zlash odobini shakllantirish, yoshlarimizning nutqiy ko'nikmasini oshirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: nutq, notiq, voiz, san'at, tafakkur, badiiy asar, tovush, kitob, ma'rifatparvar, chig'anoq.

GENERAL CONCEPT OF THE ART OF SPEAKING

Khurazova is the daughter of Buvsalima Asadulla

4th grade student of Jizzakh State Pedagogical University

E-mail: saliasli2023@gmail.com

ABSTRACT

This article is aimed at forming the oral speech of young people, increasing vocabulary and public speaking etiquette, and improving the speaking skills of our young people.

Keywords: speech, orator, preacher, art, thinking, artistic work, sound, book, enlightener, shell.

KIRISH

Insoniyat paydo bo'libdiki so'z va nutqdan foydalanish, uning imkoniyati doirasida fikr yetkazish va qabul qilishning turli usullari shakllangan. Ma'lum davrlarda o'zining nutqi orqali insonlar qalbini zabit eta olgan voiz, ya'ni notiqlar bo'lgan.

Bu insonlarning mehnati samarasi barcha jabhada butun jamoani oldinga boshlashda, vatanparvarlik hissini uyg'otishda, hissiyotlarni junbushga keltirish va bu orqali insonlarni harakatga undashda, bir maqsad tomon borishga shijoat berishda bebahodir.

Hozirgi kunda notiqlik tushunchasi va notiq termini alohida mahorat va san'at ma'nosida emas, balki, jo'n, ommaviyoq ma'noda tushunilmoqda va qo'llanilmoqda.

Har qanday ma'ruza o'qiydigan, nutq so'zlagan kishini notiq deb atalayotganini kuzatish mumkin. Bu haqiqiy notiqlikdan, ya'ni klassik notiqlikdan uzoqlashish desa bo'ladi. To'g'ri, notiqlik nutqning og'zaki shakli. Notiqlik san'atiog'zaki nutq san'atidir. Notiqlik alohida shaxsning nutqiy mahoratini, san'atini ifodalaydi. Notiqlik asosan nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni yetkazishni va ularni ma'lum maqsadga jalb qilishni taqozo qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Deyl Karnegining. "O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati" asarida nutq madaniyati va omma oldida so'zlash san'ati haqida tushuncha va mulohazalar berilib ketgan. Ushbu asarda Deyl Karnegining hayoti davomida sinab ko'rgan ko'nikmalar berilib o'tilgan.

Bilamizki, yunon faylasuflaridan Demosfen ham notiq bo'lgan. O'z-o'zidan notiq bo'lib qolmagan. U bu natijaga erishish uchun ancha mashaqqat chekkan.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Kishilar chiroyli, mazmundor nutq masalasi bilan juda qadimdan qiziqib keladilar. Qadimgi Gretsiya va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratildi. Nutq oldiga qoyiladigan talablar ishlab chiqildi. Bunga quidorlik tizimining rivojlanishi, quidorlik demokratiyasi sabab boldi. Bu davrda davlatning, savdosotiqning, sud ishlarining nihoyatda taraqqiy etishi notiqliknin san'at darajasiga ko'tardi. Yetuk inson bo'lish uchun albatta, notiqlik san'atini egallash shart qilib qo'yiladi. Ana shu ehtiyoj tufayli notiqlik nazariyasi yaratiladi.

Yunoniston – jahon notiqlik san'atining yirik namoyandalarini yetkazib bergen. Perikl, Lisiy, Demosfen, Aristotel ana shular jumlasidandir. Ma'lumki, notiqlik san'ati miloddan avvalgi V asr boshlarida Yunonistonda shakllangan. Aristotel "Nutqda aniqlik bo'lmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi, notiqlik san'atining yutug'i ham uning aniq va tushunarli bo'lishidadir", deya ta'kidlagan.

Demosfen notiqlik san'atini egallash uchun juda ko'p kuch sarflaydi. Unda jismoniy kamchiliklar mavjud edi, ovozi past va leksiyasi yomon bo'lgan, kifti asabiy ravishda titrab turgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Demosfen ovozini o'stirish uchun ozgina mayda toshlarni idishga solib, ularni shaqirlatib dengiz qirg'og'ida nutq so'zlar va to'lqin shovqin-suronini va toshlarning shaqillashini bosib ketishga harakat qilardi. Kiftining titrashidan qutilish uchun shiftga qilichni shunday ildiradiki, uning o'tkir uchi kiftga yaqin turadi va kifti titragudek bo'lsa, qilichning uchi tegib og'ritardi. Shu yo'sinda olib borilgan uzluksiz mashqlar Demosfenga jismoniy kamchiliklarni bartaraf qilishiga imkon bergen. Tinimsiz mashqlar tufayli u mashhur notiq bo'lib yetishdi.

Demosfen nutqi uning xarakterini aks ettiruvchi oyna edi. Undagi kuchli vatanparvarlik tuyg'usi nutqlarida o'z ifodasini topar edi.

Har bir kishi nutq madaniyatini mukammal o‘zlashtirishi mumkin. Ammo, har bir shaxs notiq bo‘la olrmaydi. Notiq go‘yoki dengiz tubida yotgan chig‘anoq ichidagi durni qidirayotgan g‘avvosga o‘xshaydi. U izlanuvchan va qiziquvchan bo‘lmog‘i lozim. Uddaburon g‘avvosgina durni topa oladi. Notiq so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llay olsa, ipga terilgan dulardan hosil bo‘lgan marjondek go‘zal bo‘ladi. Notiqning so‘zlari ma’noli bo‘lsagina tinglovchining ongiga ta’sir qila oladi. Eng avvalo, notiqlar ovoz ustida muntazam ishlashlari, ovozni sayqallashlari lozim. Muhim fikrlarni asoslay olishi, ta’bir joiz bo‘lsa kerak joyda kuldirib, kerak joyda yig‘lata olishi darkor.

Bunday mahoratga ega bo‘lish uchun qanday yondashuv kerak, degan savol o‘rinlidir. Darhaqiqat, notiqlikning birinchi sharti bu kitobni qo‘ldan qo‘ymaslikdir. Chunki, kitob mutolaasi inson tafakkurini o‘sirsa boshqa bir jihatdan kishining ruhiy olamini uqiy olish malakasini shakllantiradi, o‘sirradi. Inson kitobdan ma’nana, aqlan va so‘z boyligining yuqori darajada rivojlanishi uchun ozuqa oladi.

Notiq ma’lum fikrni ifodalay turib turli toifadagi insonlar taqdiridan, hayotiy tajribalaridan misollar keltirsa, bu nutq ta’sirliroq bo‘ladi. Buning uchun ko‘proq kitob o‘qishligi lozim.

Fransuz ma’rifatparvari Deni Didro bejiz ta’kidlamaganki,” Kishilar kitob o‘qishdan to‘xtasa, bilingki u fikrlashdan to‘xtaydi”.

Demakki, kitob notiqning har qadamda tirdagidir.

XULOSA

Xulosa qilish joizki, notiqlik bo‘yicha o‘z qarashlarimizni ifoda etdik. Har bir notiqning so‘zlayotgan nutqiga e’tiborli bo‘lishi, nimalarni so‘zlayotganini idrok etishi bu nutqning ifodaliliginu, ta’sirchanligini oshiradi. Aniqlik va lo‘ndalik esa notiqning asosiy qurollaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Deyl Karnegi. “Oz-oziga ishonch hosil qilish va omma oldida so‘zlash sanati”. Toshkent, 2013.
2. Ilhom Qahhorov. “Notiqlik san’ati”. Toshkent, 2015.
3. A.S.Musayev S. Do‘stova,X. Maxammadiyev, L.Sindorov, O‘qituvchi nuqt madaniyati Jizzax ,2021